

**“QUTADG’U BILIG”DA KOSMOGONIK TASAVVURLAR****Annamurodova Maftuna Sevindik qizi***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va  
adabiyoti Universiteti**Folklorshunoslik va dialektologiya kafedrası 2-kurs magistranti.*<https://t.me//maftunannamurodova@icloud>*Toshkent shahar, Uchtepa tumani 23/25/19**+998908962800**f.f.f.d.(PhD), dots.***N.Jo‘raqo‘ziyev**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Qutadg’u bilig” asaridagi astronomiyaga oid bir qancha terminlar uchraydi. Undagi yulduz nomlari, burjlarning inson hayoti bilan chambarchas bog‘liqligini, bundan tashqari asarda yetti sayyora va o‘n ikki burj nomi keltirilgani haqida e’tirof etiladi. Bu esa yulduzlar, koinot, butun olam va insoniyatning o‘zaro bog‘liqligini anglatadi.

**Kalit so‘zlar:** astronomiya, yulduz, koinot, “Zuhal” yulduzi, “Kayvān” yulduzi, “O‘qaj yulduzi”, “Yupiter” yulduzi.

**Annotation:** In this article, there are several terms related to astronomy in the work “Kutadgu Bilig”. It is recognized that the names of the stars and constellations are closely related to human life, and the names of seven planets and twelve constellations are mentioned in the work. This means that the stars, the universe, the whole world and humanity are interconnected.

**Key words:** astronomy, star, universe, “Zhuhal” star, “Kayvān” star, “O‘qaj star”, “Jupiter” star.

**Аннотация:** В данной статье в труде «Кутадгу Билиг» встречается несколько терминов, связанных с астрономией. Признано, что названия звезд и созвездий тесно связаны с жизнью человека, а в произведении упоминаются названия семи планет и двенадцати созвездий. Это означает, что звезды, Вселенная, весь мир и человечество взаимосвязаны.

**Ключевые слова:** астрономия, звезда, вселенная, звезда «Жухал», звезда «Кайван», «звезда Огай», звезда «Юпитер».

Asarda astronomiyaga oid bir qancha terminlar uchraydi. Astronim yulduz nomlari bilan bog‘liq so‘zlardir [yun. astronomia < astron + nomos – qonun]. Astronimlar osmon jismlari, koinot tuzilishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘ladi. Yulduz nomlari, burjlarning inson hayoti bilan chambarchas bog‘liqligini bugungi

kun olimlari ham e'tirof etmoqdalar. "Qutadg'u bilig'"da ham yulduz nomlariga alohida bob ajratilgan. Bu esa yulduzlar, koinot, butun olam va insoniyatning o'zaro bog'liqligini anglatadi.

"Qutadg'u bilig'"da yetti sayyora va o'n ikki burj nomi keltirilgan. Yusuf Xos Hojib sayyoralarni 7 ga ajratadi. Quyosh va oyni ham sayyora hisobiga qo'shadi.

Sayyoralarning eng ustidagi birinchi yulduz Sekantir "Zuhal" yulduzi sanaladi: *Bularda en üstün sekantir yurir, iki yıl säkiz ay bir evdä qalir* – Bulardan eng ustida Sekantir yuradi, bir burjda ikki yil (va) sakkiz oy qoladi (QBN, 127). Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asarida forscha kayvân so'zi qo'llangan.<sup>1</sup> *Kayvân* yulduzi *Zuhal* demakdir. Turfon matnlarida bu yulduz shanishchar, topraq yulduz nomlari bilan atalgan (DTS, 520; 575). Arabcha zuhal o'zlashmasi ilk bor "Qissasi Rabg'uziy"da uchraydi<sup>2</sup>.

Ikkinchi yulduz Onaj yulduzidir: *Aniñda basa boldi ikinč onaj, bir evdä qalir on ađin iki aj* – Undan so'ng ikkinchisi O'ngay bo'ladi, bir burjda o'n (va) ikki oy qoladi (QBN, 128). *Onaj* yulduzi Yupiter yulduzi (arabcha nomi Mushtariy)ga to'g'ri keladi. Yupiter sayyorasi asarda *onaj*, *qoraquş*, *erandiz* nomlari bilan berilgan. Qoraquş nomi ilk bor "Devonu lug'otit turk"da uchraydi: Tangri osmonni feruza rangida ko'm-ko'k qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Uzuksa ko'z ko'ygandek, qosh oq uzuk uchun ishlatiladigan tosh-mezon yulduzi [turkcha qora qush] unda tuzildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi (DLT, I, 318). Bundan ko'rinadiki "Devonu lug'otit turk"da qoraquş ham Yupiter sayyorasini, ham Mezon burjini anglatadi. R.R.Arat *erentir* (*erandiz*) astronimiga ham Tarozi burji, Mushtariy yulduzi deb ta'rif beradi<sup>3</sup>. Qadimgi uyg'ur manbalarida bu sayyora jiyač juldaz tarzida kelgan<sup>4</sup>. Bu sayyoraning arabcha Mushtariy o'zlashmasi ilk bor "Qisasi Rabg'uziy"da qo'llangan<sup>5</sup>. Alisher Navoiy asarlarida bu leksema "sotib oluvchi, xaridor; Yupiter planetasi" ma'nolarida kelgan: Husn bozorida men bo'ldum ul oyg'a mushtariy, kim muqarrar aylagay oyo mohi tobong'a narx ("Xazoyinul-maoniy, Ivb-116; ANATIL, II, 398).

Uchinchi yulduz Kürüd "Mars, Mirrih" yulduzi bo'lib, ilk bor doston matnida uchraydi: *Üçünči kürüd keldi köksün jurir, qajuqa bu baqsa jašarmiš qurir* – Uchinchi bo'lib Kurud keladi, u g'urur bilan yuradi, u qaysi tomonga boqsa, yashnab turgan narsa quriydi (QBN, 129). Asarda Mars sayyorasining issiqligi nazarda tutilib, barcha yashnab turgan narsalarni kuydirib yuborishi aytib o'tilgan. Mars sayyorasi

<sup>1</sup> Дадабаев Х.Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках XI – XIV вв. Историко лингвистический анализ лексики старописьменных памятников.–Т.:Фан, 1994.– С.35.

<sup>2</sup> Дадабаев Х.Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.–Тошкент:Фан, 2007.– Б.52.

<sup>3</sup> Arat R.R. Kutadgu bilig. Indeks.–Istanbul, 1979.–B.157.

<sup>4</sup> Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков (лексика).–Москва:Наука, 2001.–Б.35.

<sup>5</sup> Дадабаев Х.Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.–Тошкент:Фан, 2007.– Б.52.

asarda shuningdek, *baqirsoqun* istilohi bilan yuritilgan. Mahmud Koshg'ariyda baqirsoqum tarzida kelgan: baqirsoqum – Mars planetasining nomi, u qizillikda misga o'xshatilgan (DLT, I, 342). XIV asrdan boshlab arabcha *mirrix* leksemasi iste'molda bo'lgan<sup>6</sup>. Mumtoz adabiyotda Mars jangu jadal timsoli sifatida tasvirlangan. Abdurauf Fitrat aynan Mirrix yulduziga murojaat qilib, jamiyatning qora chizgilarini badiiy timsolda tasvirlaydi.

To'rtinchisi Jašiq yulduzidir. U quyosh (arabcha nomi shams)ga to'g'ri keladi. Muallif uni “eng yorug' yulduz” deb ataydi. Quyosh olamni yoritadi. Quyosh kimga boqsa yoki kimga va nimaga yaqinlashsa, o'shani munavvar etadi. *Jašiq boldi tōrtinč jaritti ajun, jaqišsa jarutur baqišsa özüin* –To'rtinchisi Yashiq bo'ldi, olamni yoritdi, u uzoqdan qarshi kelib kulib boqsa yoritadi (QBN, 130).

Beshinchi yulduz Sevit yulduzi bo'lib, bu hozirda Zuhra yulduzi (Nohid)ga to'g'ri keladi. Mahmud Koshg'ariyda *temur qazunuq* deb atalgan. Chunki osmon buning tegrasida aylanadi (DLT, III, 393). Muallif bu yulduzni “sevikli yuzi” deb ataydi. *Sevüg jüz orundi bešinči sevit, sevā baqti ersä sen özni avit* (QBN, 135). Mumtoz adabiyotda Zuhra eng yorqin yulduz sifatida tasvirlanadi. *Sevüg jüz*, ya'ni sevimlilar yuzi nur sochishi, dilni yoritishi jihatidan shu yulduzga qiyoslanadi.

Oltinchi sayyora, ya'ni Merkuriy Arzu istilohi bilan ifodalangan. Bu yulduz Utorid kosmonimi bilan ham atalgan. Bu yulduzning nomi O'rxun Enasoy obidalarida *tir* shaklida kelgan (DTS, 676). Turfon matnlarida esa suv yulduz tarzida uchraydi (DTS, 515). Bu yulduzni muallif “orzular yulduzi” deb ataydi. *Basa keldi arzu tiläk arzular, qajuqa jayušsa anar öz ular*–So'ng Orzu, ya'ni tilak (va orzular keladi, (u) nimaga yaqinlashsa, unga o'zini payvand etadi (QBN,132).

Yettinchi yulduz Jalčiq yulduzidir. Jalč(i)= maftun etmoq, rom qilmoq” fe'lidan -q affiksi yordamida yasalgan. Turfon matnlarida so'g'dcha *mag'* nomi keltirilgan (DTS, 335). Barcha yulduzlardan eng pastda yuradi. Quyosh bilan qarama-qarshi kelganda to'lishadi. *Bularda eñ aldın bu jalčiq yurir, jašiq birlä otu baqišsa tolir* – Bulardan eng oldinda [ya'ni pastda] Yalchiq yuradi, quyosh bilan qarshi kelgach to'lishadi (QBN, 137). Bu o'rinda oy nazarda tutilmoqda. *jašiq birlä otu baqišsa tolir degan* fikri bilan Yusuf Xos Hojib oyda nur yo'qligi, quyoshdan nur olishi haqidagi ilmiy haqiqatni bayon etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Qutadg'u bilig”da berilgan sayyora va yulduz nomlari muallifning astronomiyaga oid bilimlarni puxta egallaganini bildiradi. Yusuf Xos Hojib faqatgina yulduz nomlarini berish bilan cheklanmaydi, balki yulduz nomlari bilan bir qatorda ularning qanday xususiyatga ega ekanini ham keltirib o'tadi.

<sup>6</sup> Дадабаев Х.Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках XI – XIV вв. Историко лингвистический анализ лексики старописьменных памятников.–Т.:Фан, 1994.– С. 32-43.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. Boqijon To'xliev .-"BAYOZ" nashriyoti Toshkent, 2013.
2. "Qutadg'u bilig". Yusuf Xos Hojib. -"O'zbekiston". Toshkent, 2019.
3. Dadabaev H. Astronomicheskie naimenovanie v starotyurkskix pismennых pamyatnikax XI - XIVvv. Istoriko lingvisticheskiy analiz leksiki staropismennых pamyatnikov. -T.: Fan, 1994. - S.35.